

O‘ZBEKISTON TINCHLIK, BAG‘RIKENGLIK VA MA‘RIFAT O‘LKASI

Choriyev Nuriddin Xo'shboqov

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Termiz filliali assistenti

chariyev69@gmail.com

Nasrulloeva Muborak Murodkulovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Termiz filliali talabasi

Xoliqov Adham Hakim o‘g‘li

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Termiz filliali talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonning tinchlik, bag‘rikenglik va ma‘rifat o‘lkasi sifatidagi o‘rni, Vatanimizda chet el millat vakillari bilan hamdo‘stligi yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekistonning boy tarixiy merosi va ma‘naviy qadriyatlari asosida barpo etilgan bag‘rikeng jamiyatning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Tolerantlik, sabr-toqat, tinchlik, bag‘rikenglik, hamdo‘stlik, jamiyat, hurmat, vijdon erkinligi.

Аннотация

В данной статье освещается роль Узбекистана как страны мира, толерантности и просвещения. Также рассматривается сотрудничество и дружеские отношения с представителями различных национальностей, проживающих как в стране, так и за её пределами. Кроме того, раскрывается значение толерантного общества, сформированного на основе богатого исторического наследия и духовных ценностей Узбекистана.

Ключевые слова: Толерантность, терпение, мир, доброжелательность, дружба, общество, уважение, свобода совести

Kirish: “*Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni mustahkam qaror toptirishning eng muhim tamoyillaridan biri ijtimoiy va diniy bag‘rikenglikdir. Yurtimizda turli konfessiyalar vakillari yagona oila bo‘lib, do‘stlik va hamjihatlik muhitida yashayotgani, jonajon Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelayotgani bizning eng katta boyligimizdir.*”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti: **Sh.M.Mirziyoyev**

Mazkur fikr bugungi kunda O‘zbekistonda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda bag‘rikenglik muhitining naqadar muhim o‘rin tutishini yaqqol ifodalaydi. Haqiqatan ham, yurtimizda turli millat va din vakillarining o‘zaro hurmat va totuvlikda yashayotgani jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. O‘zbekiston — tinchlik, bag‘rikenglik va barqarorlik ustuvor qadriyat sifatida qaraladi. Bu yurtda tinchlik osongina qo‘lga kiritilgan ne‘mat emas, balki tarixiy sinovlar, mashaqqatli davrlar va xalqning sabr-toqati evaziga erishilgan bebaho boylikdir. Shu sababli ham tinchlikni asrash va qadrlash har bir fuqaroning eng muhim burchi hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda hukm surayotgan osoyishtalik — davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida qator qonunlar va huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirish huquqi kafolatlangan. Shuningdek, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun ham jamiyatda o‘zaro hurmat va totuvlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tinchlik — bu faqat urushning yo‘qligi emas, balki odamlar o‘rtasida mehr-oqibat, hamjihatlik va o‘zaro hurmatning mavjudligidir. Tinch yurtning farzandlari ilm oladi, mehnat qiladi, kelajagini bunyod etadi. Aksincha, notinchlik hukm surgan joyda taraqqiyot to‘xtaydi, inson qadri poymol bo‘ladi. Shu bois har birimiz tinchlikni ko‘z qorachig‘idek asrashimiz kerak. Bu yo‘lda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga tinchlikning qadrini anglatish muhim ahamiyatga ega. Chunki bugungi tinchlik — ertangi farovon hayotimizning poydevoridir.

Asosiy qism: Ma’naviyat va ma’rifat, din-u diyonat va ilm-u urfon o‘chog‘i bo‘lgan diyorimizda istiqlol sharofati bilan milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi, xalqimiz o‘zligini tanidi. Islom dinining insonlarni ezgulik, ma’rifat va poklikka yo‘llovchi asl mohiyatini tadqiq va targ‘ib qilish, ulug‘ ajdodlarimizning boy va Benazir ma’naviy merosini o‘rganish, yosh avlodga o‘rgatish uchun keng yo‘l ochildi.

Ayniqsa, Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda Uchinchi Renessansning ilmiy-ma’naviy poydevorini qaror toptirish, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy-diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizning islom sivilizatsiyasini rivojlantirishdagi rolini yanada oshirish hamda buyuk allomalarimizning jahon tamadduniga qo‘shgan hissasini milliy va xalqaro miqyosda ommalashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yurtimizda so‘nggi yillarda bu borada amalga oshirilgan islohotlar va uning natijalari xalqaro hamjamiyat tomonidan

yuqori baholanayotir. Binobarin, mamlakatimizda turli millat va konfessiyalar o'rtasida o'zaro hurmat, birdamlik va hamkorlik muhitini mustahkamlash, madaniyatlararo muloqotni qo'llab-quvvatlash hamda tinchlik va totuvlikni ta'minlashga oid izchil va puxta o'ylangan siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik g'oyasini hayotga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratdi. Millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni rivojlantirish uchun barcha huquqiy asos va zarur shart-sharoitlar yaratildi. *"Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi."*

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 31-modda.

Mazkur fikrning amaliy ifodasi sifatida bugungi kunda O'zbekiston ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat sifatida butun dunyoga namuna bo'lib kelmoqda. Xususan, yurtimizda **130 dan ortiq millat va elat vakillari hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari** tinch-totuv, o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitida yashab kelmoqda. Turli millat va din vakillarining yagona Vatan — O'zbekiston ravnaqi yo'lida birlashib yashayotgani jamiyatimizdagi barqarorlik va tinchlikning mustahkam poydevorini tashkil etadi. Bu esa yurtimizda olib borilayotgan oqilona siyosat, inson qadri va bag'rikenglik tamoyillariga asoslangan yondashuvning yorqin natijasidir.

Bugun O'zbekiston erishayotgan yutuqlarda saxovatli zaminda yashab, ijod qilib, halol mehnati bilan boshqalarga o'rnak bo'layotgan barcha millat vakillarining munosib hissasi bor. Yurtimizda yashayotgan turli millat va elat ahli mustahkam do'stlik rishtalari atrofida yashab, o'z orzu-istaklari ro'yobini ko'rmoqda. Mamlakatimiz maktablarida bolalarga 7 tilda ta'lim beriladi. Teleko'rsatuv va radioeshittirishlar 12 tilda efirga uzatilmoqda hamda 10 tilda ga zeta va jurnallar chop etilmoqda. Keyingi yillarda turli millatlarning 150 nafar vakili davlatimizning yuksak mukofotlari — orden va medallar bilan taqdirlandi. Shulardan 5 nafari O'zbekiston Qahramoni degan yuksak unvonga munosib topilgan. Bugungi kunda xalqlar va dinlar orasidagi bag'rikenglik, tolerantlik g'oyasi dunyoda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

"Tolerantlik" lotincha so'z bo'lib, sabr-toqat, chidam va bardosh ma'nolarini anglatadi. Ushbu so'z o'zgalarning fikr-g'oyalari, e'tiqodi, his-tuyg'ulari, turmush tarzi va xulq-atvoriga nisbatan sabr-toqatli bo'lishni ko'rsatadi.

Bag'rikenglik yoki tolerantlik atamasini immunolog olim P.Madevar tomonidan 1953-yilda muomalaga kiritilgan. Olimning ta'kidlashicha, tolerantlik immunitetiga

ega bo‘lgan sog‘lom organizmning yot jismlarga qarshi immun ta‘sirining susayishi yoki yo‘qolishidir. Tolerantlik – insonning har qanday vaziyatda erkin faoliyat ko‘rsatish jarayonida oqilona me‘yor va murosa muvozanatini ta‘minlash tamoyiliga rioya qilishidir. U o‘z ichiga sabr-chidam, mehr-shafqat, murosaga qilish, hamjihatlik, demokratiya, oqilona me‘yor, o‘zaro hurmat, insonparvarlik, xalqparvarlik va boshqa yaxshi ishlarni oladi.

Bu tamoyilning ijtimoiy muhitdagi o‘rnini belgilashda axloq, an‘analar, jamoatchilik fikri, turmush tarzi, din, ishlab chiqarish usullari, jamiyatning intellektual-aqliy darajasi singari omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Uning asosi-aql, ko‘ngil ekanligini, uning mahsuli esa shaxsning komilligini belgilashini, uning mezoni-shaxsning sabrliligining namoyon bo‘lishi ekanligini e‘tirof etadi. Bag‘rikenglik tamoyili ezgulik, adolat, go‘zallik, insonparvarlik tamoyillari bilan mushtarak holda dunyoda tinchlik va osoyishtalik uchun xizmat qilmoqda.

BMT tomonidan 1995-yil tolerantlik-bag‘rikenglik, sabr-toqatlilik yili deb e‘lon qilingan edi va shu yili 16-noyabrda YUNESKO Bosh konferensiyasida “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi” imzolandi. Bu Deklaratsiyaga jahonning 185 davlatida, shu jumladan O‘zbekistonda ham qat‘iy amal qilinadi. Bag‘rikenglikni saqlash, mustahkamlash va uni yangi ko‘rinishlarda namoyon etish bugungi kun davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Bag‘rikenglikni kunlik hayotimizga singdirish, keng joriy etish tizimli ravishda izchillik bilan tashkil etilmoqda.

Bag‘rikenglik bizning xalqimizga xos. Bizning xalqimizda “Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo‘l” degan maqol bor. Bu naqadar zarur va manfaatli maqol bizning millatimizga taalluqli. Ya‘ni odamlar o‘rtasida o‘zaro hurmat zarur. Hurmat va izzat haqidagi so‘zlarni biz bolaligimizdan ota-onalarimizdan, ustozlarimizdan va kattalardan eshitganmiz va amalda bo‘lib kelmoqda. Urf-odatimiz bo‘lgan hurmat va izzat maqoliga amal qilib kelimiz. Ota-onalarga, ustozlar va kattalarga hurmat bilan qarash, do‘stlar, tanishlar va atrofdagilar bilan o‘zaro hurmatda bo‘lish kabi xususiyatlar ham bag‘rikenglikdir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik — xalqimizning eng bebaho boyligidir. Bu ne‘mat uzoq tarixiy jarayonlar, sinovlar va sabr-toqat evaziga qo‘lga kiritilgan bo‘lib, uni asrash har birimizning muqaddas burchimizdir. Yurtimizda turli millat va din vakillarining o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va hamjihatlik asosida yashayotgani esa tinchlikning eng muhim tayanchidir. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat, qonun ustuvorligi va inson qadri tamoyillari jamiyatda barqarorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu bois har bir fuqaro tinchlikni qadrlashi, uni ko‘z qorachig‘idek asrashi va kelajak avlodlarga yetkazishi zarur. Zero, tinchlik bor joyda taraqqiyot, farovonlik va baxt-saodat barqaror bo‘ladi. Tinch va farovon O‘zbekiston esa har birimizning orzuyimiz va umumiy mas’uliyatimizdir.

Foydalinilgan adaboyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. 7.12.2017 yil.
2. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2022-yil 21-may, 101-son. Muallif: Akademik Akmal Saidov.
3. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi muallif: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati Navro‘z Rizayev.